

“TASDIQLAYMAN”
Gidrometeorologiya xizmati agentligi
direktori



Sh.Khabibullayev

Gidrometeorologiya xizmati agentligi Markaziy apparat
yig'ilishining 21-son
B A Y O N I

2026-yil 15-iyun

Toshkent shahri

Raislik qildi: Sh.Khabibullayev – O'zgidromet direktori.

Qatnashdilar: Direktor o'rinbosari – I. Karimov, Markaziy apparatning boshqarma, bo'lim boshliqlari va mas'ul xodimlari, Meteoinfokom, Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent gidrometeorologiya texnikumi, hududiy gidrometeorologiya markazlari (videokonferensaloqa orqali) (ro'yxat bo'yicha),

KUN TARTIBI:

1. Agentlik tizimida energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish, energiya tejankor texnologiyalarni keng qo'llash hamda bu borada amaliy choralar belgilash masalalari to'g'risida.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish: Agentlik tizimida korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish, xodimlar o'rtasida xizmat odobi va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish to'g'risida.

3. Ijro-intizomi, murojaatlar bilan ishlash, tizim ishchi-xodimlarining shaxsiy mas'uliyati va boshqa amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalar to'g'risida.

(Sh.Khabibullayev, I.Karimov... Sh.Khabibullayev)

Yig'ilish kun tartibidagi masala yuzasidan 2026-yilning iyun oyida "app.ijro.uz" tizimida nazoratga olingan O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish hamda bayonlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi hujjatlaridagi topshiriqlar ijrosini samarali tashkil qilish masalalari muhokama qilindi.

Yig'ilish davomida, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasi ko'rib chiqildi, mazkur yo'nalishda

xodimlarga tushuntirish ishlari olib borildi hamda korrupsiyaga murosasiz munosabatni shakllantirish zarurligi bo'yicha tegishli ko'rsatmalar berildi.

Agentlik tizimida energiya samaradorligini oshirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, muqobil va qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish, energiya tejamkor texnologiyalarni keng qo'llash hamda bu borada amaliy choralar belgilash masalalari muhokama qilindi.

Kun tartibidagi masalalarni atroflicha muhokama qilib, yig'ilish

QAROR QILADI:

1. Gidrometeorologiya xizmati agentligi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'yicha bosh mutaxassis lavozimiga uzoq yillardan beri ushbu sohada turli davlat idoralarida xizmat qilib kelgan, tajribali Subanov Anvar Yaxshiboyevich tayinlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Yuridik ta'minlash, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi **(G.Unorova)** O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga Gidrometeorologiya xizmati agentligining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'yicha bosh mutaxassis lavozimiga amalga oshirilgan tayinlov bo'yicha ma'lumot xati tayyorlasin.

2. Ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash bo'limi bosh mutaxassisi **K.Baxromov** "Ijro.gov.uz" tizimida **iyun oyida** bajarilishi belgilangan topshiriqlarni o'z vaqtida va sifatli ijrosini ta'minlash maqsadida nazoratni kuchaytirsin hamda **iyun oyi** davomida belgilangan topshiriqlarni sifatli ta'minlash uchun barcha mas'ullarga ogohlantirish bersin.

3. Agentlikda Energiya samaradorligini oshirish va muqobil energiya bilan ta'minlash maqsadida Gidrometeorologik ta'minot boshqarmasi **(A.Narzullayev)** agentlikning yillik energiya istemolini kamida 5% ni muqobil energiya manbalari (*quyosh panellari*)ga o'tkazish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni qamrab oluvchi buyruq loyihasini rahbariyatga kiritсин.

4. Direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi **Q.Kulumbetov 1 kun muddatda** qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini sotib olish va o'rnatish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari bo'yicha birinchi bosqichda barcha aviameteorologik stansiyalarni qamrab olish undan so'ng **15-20 KVt** limit bilan hududiy gidrometeorologik markazlarini muqobil energiya manbalari bilan ta'minlash masalalarini o'rganib chiqib rahbariyatga loyiha taklifini kiritсин.

Loyihada aviameteorologik stansiyalariga qoida tariqasida bitta lampa, konditsioner, wi-fi router hamda bitta bo'sh zaxira slotni ta'minlab beruvchi quyosh panelli tizimini o'rnatish ko'zda tutilsin.

5. Sonli modellarni rivojlantirish va mintaqaviy ixtisoslashtirilgan meteorologiya ta'minoti boshqarmasi **(U.Umirzoqov)** aviameteorologik stansiyalar uchun qurilmalar joylashgan xonani maxsus issiqlik va sovuqlikni masofadan monitoring qilish qilish imkonini beruvchi datchiklar bilan jihozlash bo'yicha

rahbariyatga taklif kiritsin.

6. **Ikki oy ichida** murojaat qilgan barcha agentlik tizimida faoliyat yurituvchi “Temir daftar”ga kirgan xodimlarning xonadonlarini muqobil energiya (quyosh panellari, issiqlik nasoslari, geotermal energiya) bilan ta’minlashga ko‘maklashish maqsadida Energiya samaradorligi milliy agentligi orqali shartnoma rasmiylashtirgan xodimlarga shartnoma boshlang‘ish to‘lovini 100% miqdorda qoplab berilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Barcha hududiy markazlari va tizim tashkiloti rahbarlari hamda markaziy apparat boshqarmalari va mustaqil bo‘lim boshliqlari **3 kun muddatda** o‘zlarida alohida yig‘ilish o‘tkazgan holda yuqoridagi energiya samaradorligi bo‘yicha belgilangan imkoniyatlar haqida xodimlarini ogohlantirsin va tushuntirish bersin.

O‘tkazilgan barcha yig‘ilish bayonlarini Yuridik ta’minlash, inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi (**G.Unorova**)ga taqdim etsin.

8. Sonli modellarni rivojlantirish va mintaqaviy ixtisoslashtirilgan meteorologiya ta’minoti boshqarmasi (**U.Umirzoqov**) va Gidrometeorologik ta’minot boshqarmasi (**A.Narzullayev**) Toshkent va Buxoro viloyatlarida aerologik stansiyalarda kuzatuvlarni yo‘lga qo‘yish arafasida havoga uchiriladigan radiozond (shar) zaxirasidan doim xabardor bo‘lish va doimiy faoliyatini uzilishlarsiz davom ettirish maqsadida radiozond uchun oldindan buyurtma berish maqsadida rahbariyatga taklif kiritsin.

9. Gidrometeorologik uskunalarni texnik qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi (**Q.Zaxidov**) **3 kun muddatda** Sirg‘ali tumanidagi gidrometeorologik radiolokatorni elektr tarmog‘ini yerga ulash (zazemleniya) ishlarini yakunlash bo‘yicha rahbariyatga axborot kiritsin.

10. Bosh yuriskonsult **S.Isxakova** O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasiga buyurtmachi yuridik xizmati tomonidan shartnoma qonunchilikka zid deb topilishi va natijada O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi G‘aznachiligi tomonidan ro‘yxatga olinmasligi ehtimolini yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan masalalarni tuzatish yuzasidan takliflarni qamrab oluvchi xat loyihasini rahbariyatga kiritsin.

11. Ushbu yig‘ilish qarorida belgilangan vazifalar ijrosini nazorat qilish Ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash bo‘limi bosh mutaxassisi **K.Baxromov**ga zimmasiga yuklansin.